



CERTIFICATE OF APPRECIATION

THIS CERTIFICATE IS AWARDED TO

Ismoilova Mahsuma Narziqulovna

FOR PARTICIPATION AND PUBLICATION OF THE PAPER ENTITLED

**TA'LIMIY MOBIL ILOVALARGA
QO'YILADIGAN TALABLAR**

In an International Conference on Modern Science and Scientific Studies , Published online with E- Conference Series, Hosted online from Paris, France.

ISSN (E): 2835-3730

SJIF: 5.272

Date: 13/06/2024



harper miller
Harper Miller

www.econferenceseries.com



E- CONFERENCE
SERIES

E- Conference Series

Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings



TA'LIMIY MOBIL ILOVALARGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Ismoilova Mahsuma Narziqulovna

Annotatsiya

Ushbu maqolada ta'lim jarayonida mobil ilovalardan foydalanish imkoniyatlari va texnologiyasi haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: mobil vosita, dasturiy ishlanma, elektron qo'llanma, elektron o'quv axborot resurs dasturi.

Yosh avlodni barkamol shaxs sifatida kamol toptirish hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan jamiyatimizning asosiy vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi. Kadrlar tayyorlash milliy modeli tarkibiy qismlardan biri bo'lgan shaxsni har tomonlama kamolga etkazish, yuksak ma'naviy va axloqiy sifatlarni tarbiyalash, unda kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirishda zamonaviy ilg'or tendensiyalardan maqsadli foydalanish dolzarb masala hisoblanadi. Barkamol avlodni tarbiyalashda uning intellektual qobiliyatini rivojlantirmay, uni ma'naviy-axloqiy tarbiyalamay, shuningdek, imkoniyatlarining yangi qirralarini to'la ro'yobga chiqarmay turib ijtimoiy taraqqiyotga erishib bo'lmaydi. Mobil vositalar hamda kompyuterlar uchun mo'ljallangan dasturiy ishlanmalar barkamol avlod ongida yangi bilim ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilishi va ijtimoiy tarmoqlarga ortiqcha vaqt sarflamasdan, vaqtning to'g'ri taqsimlab, uni bilim olishga yo'naltirish asosiy vazifalardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Ma'lumki, inson ongi va tafakkurida kechayotgan tasavvurlarning vizuallashuvi kompyuter texnikasi va uning dasturiy imkoniyatlarisiz bo'lmaydi[2]. Kadrlar tayyorlash borasidagi davlat siyosati uzluksiz ta'lim tizimi, intellektual va ma'naviy-axloqiy tarbiyasi bilan bog'liq har tomonlama rivojlangan shaxsning kamol topishini nazarda tutadi. Har bir shaxsning har tomonlama shakllanishi uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, milliy-madaniy, tarixiy an'analar, urf-odatlar, qadriyatlarga asoslangan ilg'or tendensiyalar asosida tarbiyalash maqsadga muvofiqdir. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ta'lim samaradorligini oshirishdagi o'rnini e'tiborga olgan holda zamonaviy ta'lim tizimida yetarli darajada kadrlar salohiyati, moddiy-texnikaviy baza hamda axborot va pedagogik texnologiyalarini keng joriy qilish, telekommunikatsiya tarmoqlaridan unumli foydalanish imkoniyati rivojlantirilmoqda.

Yuqoridagi mulohazalarga misol qilib, umumta'lim maktablarda informatika fanini o'tishda o'quvchilarni dars jarayoniga jalb qilish, ularni darsdan tashqari vaqtda ham



informatika fani bilan shug'ullanishlarini ta'minlash, informatika fanini mobil dasturiy vositalardan foydalanib takomillashtirish maqsadida ushbu fanni o'rgatuvchi mobil ilova yaratildi. Bu ilovaga qo'yilgan eng asosiy talablar quyidagilardan iborat:

- dastur android tizimi uchun yaratilishi lozim. Hozirgi kunda android tizimidagi dasturlar yaratish tobora rivojlanib bormoqda. Doimiy ravishda kitoblar, hattoki mini kompyuterlardan ham har doim foydalanish imkoniyati cheklangan. Foydalanuvchilarga qulay bo'lishi uchun bu dasturni mobil aloqa vositalariga mo'ljallab yaratilgan;

- ma'lumotlar bazalari bilan ta'minlash. Har qanday dasturchi dastur yaratishdan oldin uni ma'lumotlari ishonchli va aniq bo'lishi uchun bir qancha izlanishlar olib boradi. Dasturdagi ma'lumotlar bazasini kerakli ma'lumotlar bilan boyitilishi, foydalanuvchining xatoliklarga yo'l qo'ymasligini oldini oladi.

- har bir mavzuga oid turli misollarning berilishi. Foydalanuvchi har bir ma'ruzadan keyin shu mavzuga oid bir qancha misollar ishlab, olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay olishi uchun misollar bo'limi ham joriy qilingan.

- olingan bilimlarni tekshirish uchun test tizimi yaratish. Odatda o'quvchilarning ko'pchiligi olgan bilimlarini tekshirish maqsadida test tizimidan foydalanishga qiziqadilar. Shuni inobatga olgan holda test tizimi ham yaratilgan.

- elektron qo'llanmalar bilan ta'minlash. Foydalanuvchilarga dastlabki fanga oid tushunchalarni berib, bilimlarni oshirishga yordam berish maqsad qilib olingan. Har bir menyu o'ziga xos ma'lumotlar bilan boyitilgan. Masalan "Test" bo'limidan foydalanuvchi o'zining darajasiga qarab xohlagan test turini tanlashi mumkin. Testni ishlash jarayonida 4 ta variant berilgan va belgilangan javoblar to'g'ri yoki xato ekanligi ko'rsatiladi. Bu yaratilgan dastur android sistemasida ishlaydigan barcha mobil telefonda ishlaydi va androidning barcha versiyalari uchun mos keladi. Undan tashqari dastur unchalik ko'p xotira talab qilmaydi. Bu dasturni ishlatish davomida foydalanuvchilar bilimlarini oshishiga yordam beradi. Dastur dizayn jihatdan foydalanuvchilarni jalb qilishi, interfeysining qulayligi bilan ajralib turadi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu yaratilgan elektron o'quv axborot resurs dasturidan foydalanish natijasida:

o'quvchilar mustaqil bilim olishga;

fanlarga oid o'z bilim darajalarini rivojlantirishga;

o'quv adabiyotlariga bo'lgan talab muammosi kamayishiga;



vaqtning tejalishiga va axborot almashishini tezlashishiga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Махсума Нарзикуловна Исмоилова, Нилуфар Бахтиёровна Мавлонова. Использование современных информационных технологий в освоении профессиональных навыков// Актуальные научные исследования в современном мире. 2016 - № 5-3. С. 143-145.
2. ДР Арашова, МН Исмоилова. Методика преподавания индивидуализация обучения в вузах// Теория и практика современной науки. №12(30). 2017. С. 39-42.
3. U Khalikova, M Ismoilova. Pedagogical technologies in teaching mathematics// Humanities in the 21st century: scientific problems and searching for effective humanist technologies. 2018. С.44-45 .
4. Исмоилова М.Н.,Тураева Г.Х. Методы обучения на основе мобильных технологий для изложения новых учебных материалов // Вестник Науки и образования. 2021, №8(111), Стр. 65-67.

